



TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AHAMYATI.

Xoliqulov Shaxriyor Akram o'g'li

Nukus Davlat

Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar va ulardan ta'limda samarali, bosqichma-bosqich foydalanish, pedagogik texnologiyalarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Yangi innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, pedagogik dars usullari, malakali kadrlar*

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining eng asosiy dolzarb , unsurlari quydagilarni o'z ichiga oladi:zamonaviy , yangicha , innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining mukammal olib borilishi va tashkil etilishi o'quvchilarning ham mustaqil ham kreativ fikirlashlariga ulkan yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi. Texnika texnologiyalar , ilm - fan va ishlab chiqarishning bugungi kundagi yuksak taraqqiyoti o'z -o'zidan yangi ijtimoiy talablarni zamon talabiga qo'ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat qolaversa uning asosida sohalar rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch -- tajribali kadrlarni tayyorlash , ana shu maqsadga qaratilgan tizimni shakllantirish juda muhim ahamyatga ega . Malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj dastavval ishlab chiqarish korxonalarida paydo bo'lgan bo'lsada , hozirgacha o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Buning eng asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy , madaniy , iqtisodiy taraqqiyotga bog'liqligi , yangidan yangi yo'nalishlar ixtisosliklarning paydo bo'lishi ularga bo'lgan ehtiyojlarning ortib borishi , ular bo'yicha zamonaviy kadrlar tayyorlashning vujudga kelishi, o'zgaruvchan, hozirgi davrda mutaxassis kadrlarning kasbiy bilim , ko'nikma , mahoratlarini muntazam ravishda oshirib borishga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi , shuningdek mutaxassis kadr sifatida kuchli raqobatga bardosh bera olishiga bo'lgan talablarning ortishi hisoblanadi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.SHerbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni



tashkil etish, innovatsiyaning «Hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Pedagogik texnologiya – texnologiyaga nisbatan tor tushuncha bo'lib unda faqat ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini mahorat, san`at bilan o'rganish, shuningdek, pedagogik texnologiyalar-pedagogik jarayonni yangicha qurish boshqarish tashkil etishning mexanizmidir.

Texnologiya so'zining lug'aviy manosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu so'z yunonchadan olingan bo'lib "tehnos"- mahorat, sa'nat "logos"- ta'limot, fan ma'nolarini bildiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, texnologiya so'zi boshqa so'zlarga qo'shilib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini, tajribasini oshirish vazifalarini bajaradi."inn atamasi esa lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi. Innovatsion tushunchasi birinchi bo'lib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi. Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim.

Yangi innovatsion texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda, ta'limning zamonaviy talablar asosida rivojlanishida katta imkoniyatlarni ochib beradi. Sodir bo'layotgan sifat o'zgarishlar shuni anglatadiki, odat bo'lgan tushintirishda "o'rgatish" jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitish innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik ta'limning samaradorligini pasaytirib yuboradi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektr, elektron doska va hakozolar) foydalanish mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa mazmun mohiyati shunchalik oshadi. Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, jalb qilish, o'zlashtirilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishiga erishish mumkin. Innovatsion dars o'tish usullarini, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim davridan boshlab tashkillashtirish ta'lim tizimida yuqori samaradorligini oshirib ta'lim sifatini yaxshilaydi. Misol uchun Golbraytning fikricha «Ta'lim texnologiyasi - ilmiy va boshqa bilimlarni amaliy masalalarni hal etishda tizimli ravishda qo'llashidan iborat». Bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud.

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko'payib borayotganligi;



3.Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish kerakligi;

4.Talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo'lishi, talabning qiziqish va intiluvchanligini to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi lozimligi;

5.O'qituvchi ta'lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta'lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6.O'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo'lishligi;

7.Ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob'ektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8.O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa majmuy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir hisoblanadi.

Xulosa: Innovation pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limning zamonaviy talablar asosida rivojlanishi hamda ta'lim sifatining yuqori bo'lishiga yordam beradi.Ulardan ta'limda samarali va yuqori pedagogik innovatsiyalar bilan ishlagan holda o'quv dars jarayonlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova Malohat Ergashevna Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi), O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: «TAFAKKUR-BOSTON 1». 2011.

2. M.X. Toxtaxodjayeva, S.N. Nishonova, J.H. Asanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyarova, A.Qoldibekova, N.N. Nishonova, N.Sayidahmedov. "Pedagogika"

3. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008.

4. c